Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромов Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

INNOVATSION O'SISHGA INSON KAPITALI TA'SIRINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Ostanov Egamberdi

Qarshi davlat universiteti dotsenti

**Ostanova Mashxura Egamberdiyevna**

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeliga o'tish sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda innovatsion o'sishga inson kapitali ta'sirining zamonaviy yondashuvlari nazariy jihatdan ifodalab berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, inson kapitali, iqtisodiy o'sish, ta'lim, axborot texnologiyalari, innovatsiya.

Abstract: This article theoretically presents modern approaches to the influence of human capital on innovative growth in the context of the transition to an innovative model of economic development of New Uzbekistan.

Key words: New Uzbekistan, development strategy, human capital, economic growth, education, information technologies, innovation.

Аннотация: В данной статье теоретически представлены современные подходы к влиянию человеческого капитала на инновационный рост в условиях перехода к инновационной модели экономического развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, стратегия развития, человеческий капитал, экономический рост, образование, информационные технологии, инновации.

KIRISH

XXI asrda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda, insoniyat farovonligini doimiy ravishda oshirib borish uchun iqtisodiyotning barcha sohalarini uyg'unlikda rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish global masalaga aylandi. Ushbu masalalarga yechim topishda inson kapitalini rivojlantirish markaziy o'rinni egallaydi. Innovation o'sish bilan inson kapitali o'zaro to'g'ri mutanosiblikda bo'lib, tadqiqotlarga ko'ra, inson kapitalining 1%ga oshishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ning 0,4%1ga o'sishini ta'minlaydi. O'z navbatida, iqtisodiy o'sish davlatning kuchli ijtimoiy siyosati orqali ikkinchisining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining 70%2gacha qismini inson kapitali tashkil etadi. Shu sababli mamlakatning iqtisodiy o'sishi va intellektual salohiyatining oshishiga yanada samarali ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

1 Hanushek A. et al. Education and economic growth: it's not just going to school, but learning something while there that matters // Education next. Spring 2008 https://www.researchgate.net/publication/279603863_Education_and_economic_growth_It's_not_just_going_to_school_but_learning_something_while_there_that_matters/link/5815a42b08aeffbed6be4f99/download

2 Jahon bankining "O'zgaruvchan millatlar boyligi 2021 y. Iqlim xavflarini hisobga olish" hisoboti ma'lumotlari. https://unece.org/fileadmin/DAM/stats/documents/ece/ces/ge.33/2020/mtg3/S4_1440_GrzegorzPeszko_World_Bank_CWON_forupload.pdf



Iqtisodiy o'sishning zamonaviy modellarini ishlab chiqarishning samarali usullarini joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda inson kapitali omilining ahamiyati beqiyosdir. Inson kapitalini oshirish va uning sifatini yaxshilash mamlakatni strategik rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishi va ayni paytda iqtisodiy o'sishning dolzarb muammolaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining to'rtinchi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta chora-tadbirlar belgilandi va unda oliy ta'limga qamrov darajasini amaldagi 28 foizdan 50 foizga yetkazish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan³.

Bugungi kunda inson kapitali "sifati"ning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining aniq tushunchalari mavjudligiga qaramay, ularning innovatsion rivojlanishdagi sifatini oshirish bo'yicha aniq tamoyillar mavjud emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLIL

Iqtisodiy taraqqiyotda insonning rolini baholash asrlar davomida o'rganilgan va bugungi kunga qadar o'rganib kelinmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi inson omillarining rolini baholash ilk marotaba klassik yo'nalish vakillarining ishlarida o'rganilgan. (V. Petti, A. Smit, D. Rikardo, K. Marks, Dj.S. Mill, I. Fisher va boshqalar). Ular ilk marotaba ilmiy darajada nafaqat moddiy omillar, balki insonning o'zni va uning iqtisodiyotdagi rolini o'rganganlar. 1776 yilda Adam Smit mamlakat aholisining orttirilgan foydali fazilatlarini va qobiliyatlarini inson kapitaliga tegishli ekanligini takidlagan⁴.

V. Petti, A. Smit⁵, D. Rikardo, K. Marks, J. S. Mill, I. Fisher, A. Marshall, D. Mintzer, T. Shuls, G. Bekker⁶ va M. Blaug, K. Errou⁷ kabi olimlar inson kapitalini o'z fundamental asarlarida yoritishgan. J. Mintzer, L. Turou, V. Boven, M. Fischer, R. Nelsona, YE. Felpsa⁸, R. Lukas⁹, E. Engel¹⁰, V. Farra¹¹ va J. Vazeylar ham tadqiqotlarida inson kapitalining zamonaviy nazariyalari keng yoritilgan.

MDH olimlar orasida inson kapitalning sifati va unga ta'sir etuvchi omillarni L. S. Babinina, I. Garafiyeva, S. V. Dudnikov, I. A. Kovalevich, Y. G. Odegov, G. G. Rudenko¹², I. Ivashkovskaya, V. Kalyujniy, Ye. Kolos, B. Leontyev, L. Lukicheva, B. Milner, G. Stepanova, V. Suprun¹³ va boshqalarning ilmiy ishlanmalarida intellektual kapitaldan samarali foydalanish muammolari keng yoritilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

4 "A man educated at the expence of much labour and time to any of those employments which require extraordinary dexterity and skill, may be compared to an expensive machine" (Adam Smith. The Wealth of Nations. London: G. Routledge, 1776; New York: Modern Library, 1937

5 "A man educated at the expence of much labour and time to any of those employments which require extraordinary dexterity and skill, may be compared to an expensive machine" (Adam Smith. The Wealth of Nations. London: G. Routledge, 1776; New York: Modern Library, 1937

6 Беккер Г. С. Человеческое поведение: экономический подход: избранные труды по экономической теории/пер. с англ. М.: ГУ – ВШЭ, 2003., Кузнецов Ю. А., Мичасова О. В. Человеческий капитал: формирование, измерение, вклад в экономический рост // Экономический анализ: теория и практика. 2010. № 26, Соболева И. В. Парадоксы измерения человеческого капитала: научный доклад. М.: Институт экономики РАН, 2009, Соболева И. В. Парадоксы измерения человеческого капитала // Вопросы экономики. 2009. №9., Blaug M. The Empirical Status of Human Capital Theory: A Slightly Jaundiced Survey // Journal of Economic Literature. 1976. Vol.14. № 3 Resource Development International. 2004. Vol. 7, № 4., Soboleva I. Paradoxes of the Measurement of Human Capital // Problems of Economic Transition. 2010. Vol. 52, № п.

7 Arrow K. J. The Economic Implications of Learning by Doing // Review of Economic Studies. 1962. Vol. 29. № 1.

8 Nelson R. R., Phelps E. S. Investment in Humans, Technological Diffusion, and Economic Growth // American Economic Review. 1966. Vol. 56, № 1,2

9 Lucas R. E., Jr. On the Mechanics of Economic Development//Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22. №1.

10 Oxley L., Le T., Gibson J. Measuring human capital: alternative methods and international evidence// The Korean Economic Review. 2008. Vol. 24. № 2.

11 Farr W. The Income and Property Tax // Journal of the Statistical Society of London. 1853. Vol. 16, № 1.

12 Абдурахманов К. Х., Бабынина Л. С., Одегов Ю. Г. Управление человеческими ресурсами организации. –Ташкент: Фан, 2020. –252 с.; Одегов Ю. Г. Экономика труда: учебник и практикум для академического бакалавриата. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: Юрайт, 2015, Ковалевич И. А. Человеческий капитал системы образования: учебник. – Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2018. 216 с. Гарфиев И. З. Социальный заказ на инновационный человеческий капитал: монография. – Казань: Казанский национальный исследовательский технологический университет, 2016. – С. 208.

13 Ивашковская И. В., Байбурина Э. Р. Роль интеллектуального капитала в создании стоимости крупных российских компаний: опыт эмпирического исследования. // Вестник Финансовой академии, 2007; Калюжный В. В. Усовершенствованные и новые методы измерения влияния капитала, труда и производительности на рост ВВП // Экономика Украины. – 2003. – № 6. – С. 42–48; Колос Е. А. Тенденции и пути развития человеческого капитала и интеллектуального потенциала казахстанского общества // Основы экономики, управления и права, 2014 – №4(16). – С. 123-126; Леонтьев Б. Б., Леонтьева В. Б. Интеллектуальная природа. Системное мышление. Интеллектология. Идеология. – М.: РАЕН, Издательство "РИНФО", 2019. – С. 518.; Лукичева Л. И. Управление интеллектуальным капиталом. – М.: Омега-Л, 2007. – С. 552; Мильнер Б. З. Управление знаниями: эволюция и революция в организации. – М.: Инфра-М, 2003. – С. 177; Степанова Г. Н., Филонова А. С., Губанова Н. В. Развитие интеллектуального потенциала личности в XXI веке: монография. –М.: Изд-во "Мир науки", 2019. – С. 132; Супрун В. А. Интеллектуальный капитал. Главный фактор конкурентоспособности экономики в 21 веке. – М.: КомКнига, 2006. – С. 192.; Бараева Ю. В. Интеллектуальный капитал – ключевой конкурентный фактор Российской экономики/ Вестник КГУ им Н. А. Некрасова, 2006. №6.



Mamlakatimiz olimlaridan: akademik K.X. Abduraxmanov, professorlar B.X. Umurzakov, SH. D. Kudbiyev, Z. Y. Xudoyberdiyev, SH. X. Nazarov, N. K. Zokirova, N. U. Arabov, N. X. Raximova, B. A. Islamov, B. SH. Maxkamov, G. K. Abduraxmanova, X. X. Mamadaliyeva, D. A. Nasimov, R. R. Xasanov¹⁴ va boshqalarni ishlarida inson kapitali va innovatsion rivojlanishni faollashtirishning nazariy, uslubiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asr boshlarida inson kapitali nazariyasining neoklassik yo'nalishi A. Marshall tomonidan shakllantirilgan, unga ko'ra, inson tovar hisoblanmaydi, chunki bozorda inson emas balki uning mehnati sotiladi. A. Marshall "shaxsiy kapital" tushunchasini "inson kapitali" ta'rif bilan almashtiradi¹⁵.

Dastlabki paytda inson kapitali deganda, odamlarning mehnatga bo'lgan qobiliyati – ta'lim va kasb ko'nikmalariga investitsiyalar jamlanmasi tushunilgan. Keyinchalik inson kapitali tushunchasi jiddiy ravishda kengaydi. Jahon banki ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan eng so'nggi hisob-kitoblarda inson kapitaliga iste'mol xarajatlari – oilaning ovqatlanishi, kiyim-kechagi, turar joyi, ta'lim olishi, sog'liqni saqlash, madaniyatga va hokazolarga sarflar, shuningdek, davlatning shu maqsadlar uchun xarajatlari kiritilgan. Shundan kelib chiqib, keng ma'noda, inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir¹⁵. Ular inson kapitalini rivojlantirishning ishlab chiqarish omili sifatida samarali va oqilona amal qilishini ta'minlashi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali nazariyasiga muvofiq, odamlar o'zlariga investitsiya kiritib, imkoniyatlarini kengaytirishlari, davlat esa inson kapitalini boyitish uchun mablag' sarflab, milliy daromadni ko'paytirishi mumkin. Bunday investitsiyalarning samaradorligi sarf qilingan mablag'larning mehnat unumdorligi ortishi va ish haqi ko'payishi orqali qoplanishida o'z ifodasini topadi. Inson kapitalini boshqalarga bera olmaslik ham uning egasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Inson kapitalining shakllanish manbalaridan qat'i-nazar undan foydalanish va bevosita daromad olish insonning o'zi tomonidan nazorat qilinadi.

Inson kapitali har bir rivojlanayotgan mamlakat milliy boyligining yarmidan ko'prog'ini, jahonning taraqqiy etgan davlatlarda esa 70,0–80,0 %dan ortig'ini tashkil etadi.

Hozirgi davrda jahonning deyarli barcha mamlakatlarida inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi – ta'limni rivojlantirishga e'tibori ortgan. Bundan 100 yil muqaddam ta'lim uchun davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 1,0 %ini tashkil etardi. Hozirgi vaqtda bu ko'rsatkich 5,1%ga yetgan. Natijada dunyoda boshlang'ich ta'limga ega bo'lganlar soni jami aholining 94,0 % dan ortib ketdi.

Jahonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va ishlab chiqarishning sifat darajasini oshirishda inson kapitalning rolini aniqlash (ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan mamlakatlarda inson kapitalni oshirish orqali barqaror o'sishni ta'minlash)ga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim yo'nalishlardan biridir. Shuning uchun inson kapitali (uning tashkiliy elementlari)ning innovatsion o'sishga ta'sirini baholash asosida uni rivojlantirishning samarali usullarini belgilash muhimdir.

Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning yangi bosqichi ustuvorliklarning sonidan sifatga o'zgarishi bilan bog'liq. O'zbekiston – 2030 strategiyasida belgilab qo'yilganidek, milliy ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda asosiy kafolat bo'lib, uning sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Aynan ta'lim sifati O'zbekiston

14 Abduraxmanov K. X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan, 2019. – 418 b.; Абдурахманов К. Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики. – Москва: ФГБОУ ВО "РЭУ им. Г. В. Плеханова", 2023. – 356 с.; Умурзаков Б. Х. Человек и его потенциал в условиях экономики будущего // Технические университеты: интеграция с европейскими и мировыми системами образования. – 2014. – С. 416-419; Абдурахманов К. Х., Зокирова Н. К. Человеческое развитие: учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО "РЭУ им. Г. В. Плеханова", 2014. – 320 с.; Зокирова Н. К. Интеллектуальный капитал в инновационной экономике Узбекистана // Наука и практика. – 2013. – № 3. – С. 35; Arabov N. U. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 270 b.; Nasimov D. A. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ish bilan bandlik egiluvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 260 b.; Xasanov R. R. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda xonadonning o'rni // Iqtisod va moliya. – 2015. – №10; Abdurakhmanov K. H. Zokirova N. K., Islamov B., Hiwatari. Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, 2016. – 230 p.; Nazarov Sh. X. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Darslik. – T.: "Renessans" nashriyoti, 2021. – 196 b.; Xudoyberdiyev Z. Ya. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Ilmziyo, 2016; Kudbiyev Sh. D. Роль МОТ в формировании и регулировании рынка труда молодежи // General question of world science. – 2019. – С. 50-55.; Махкамов Б. Ш. Управление человеческим капиталом и лидерство. Учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2019. – 138 с.; Рахимова Н. Х. Женщина и предпринимательство в Узбекистане // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. – 2006. – № 2(78). – С. 134-139; Мамадалиева Х. Х. Аҳолини сифат жиҳатдан ривожланишида оиланинг роли. – Т.: Global Books, 2017. – 124 б.; Abduraxmonova G. Q., Rustamov D. J. "Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari". Monografiya. – Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. – 127 b.

15 Abduraxmanov K. X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan, 2019. – 418 b.



iqtisodiyoti rivojlanishining muhim hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda. Ta'lim iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivi rolini o'ynashi uchun ta'lim darajasi iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridan oshib ketishi zarur.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat mahalliy ishlab chiqarish darajasiga, balki mehnat bozori talablariga javob beradigan, o'zgaruvchan sharoit va o'sib borayotgan ehtiyojlarga tez moslasha oladigan yangi shakldagi professional kadrlarni tayyorlashga ham yo'naltirilishi kerak. Ta'lim standartlari yangi texnologik tartibga o'tish sharoitida yildan yilga takomillashib borayotgan jahon talablariga moslashtirilishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda ta'lim sifatini uning barcha bosqichlarida yanada rivojlantirish va ta'lim tuzilmasini iqtisodiy o'zgarishlar istiqboliga ko'ra optimallashtirish zarur. Buning uchun kelajakda salbiy tendensiyalarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan mamlakatimiz ta'lim tizimining bugungi holatining mavjud xavf va tahdidlarini xolisona baholash zarur.

Fanning rivojlanishi jarayonida faqat innovatsiyalar, o'ta yuqori unumli mashina – uskunalar yaratilib, ular asosida ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari shakllanibgina qolmasdan, balki yangi qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarning o'zi ham sifat jihatidan o'zgaradi. Axborot jamiyatida ilm-fan o'ziga xos "inson kapitali generatori"ga aylanadi.

Ta'lim va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ko'plab tadqiqotlarda inson kapitalining sifat xususiyatlarining yo'qligi bugungi kunning asosiy muammosi sanaladi. Ta'limning miqdoriy ko'rsatkichlari inson kapitalidagi mamlakatlararo farqlarning noadekvat o'lchovidir, chunki ta'lim tizimlari resurslar, tashkil etish va davomiylik nuqtayi nazaridan mamlakatlarda farqlanadi. Mamlakatlarning ta'lim tizimlari o'rtasidagi sifat farqlarini tushuntirishning yechimlaridan biri ta'lim xarajatlari, o'quvchilar-o'qituvchilar nisbati va test ballari kabi inson kapitali sifati ko'rsatkichlariga e'tibor qaratishdir. Bu ko'rsatkichlarni ta'limning turli darajalarida o'lchash mumkin.

Biroq inson kapitali sifatining bunday ko'rsatkichlari butun ishchi kuchi uchun ishonchli umumlashtirishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni olishni juda qiyinlashtiradi. Natijada, har qanday mumkin bo'lgan o'lchov chorasi o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va bu inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, aholi bandligi va turmush sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish kabi masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy o'sish aholi bandligi va salomatligi, turmush sifati, ta'lim tizimining rivojlanish darajasi va sifati hamda raqobatbardoshligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

2030-yilga kelib yoshlarning oliy ma'lumotli qamrovi 50% ga yetkazish O'zbekiston-2030 strategiyasida maqsad qilib belgilab qo'yilgan. Oliy ta'lim qamrovi keng tarqalib, o'z-o'zini tarbiyalash vakolatini shakllantiradi va shu bilan hayot davomida "moslashuvchan" ta'lim olish uchun asos yaratadi. Ayniqsa, O'zbekistonda hozirgi vaqtda shakllantirilgan inson kapitali iqtisodiyotning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qonli qondirmaydi. Shundan kelib chiqib, innovatsion iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini oshirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-y.
3. Abduraxmanov K. X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Fan, 2019. – 418 b.
4. Оксфордский толковый словарь по бизнесу. М.: Прогресс – Академия, 1995, стр.296.
5. Абалкин Л. И. Стратегический ответ России на вызовы нового века. Под ред. Л. И. Абалкина М.: Экзамен, 2004. стр.
6. Черниченко Т. А. Теоретические аспекты управления человеческим капиталом. Вестник Российского государственного гуманитарного университета. 2011, №10. стр 158.
7. Генкин Б. М. Экономика и социология труда: Учебник для вузов. 5 издание, доп. –М.: Норма, 2003, стр 53.
8. Умурзаков Б. Х. Основные критерии оценки развития человеческого потенциала и их характеристики//Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы. Монография под ред. Акад. Р. А. Убайдуллаевой. – Т.,2012. с.183-192.
9. Остановова, М. Э. (2021). Занятость как критерий эффективности использования трудового потенциала экономики (на примере Республики Узбекистан). Государственное и муниципальное управление. Ученые записки, (3), 82-88.
10. Nabiev, D. X., Ochilov, A. O., Raimova MJ, O. M., & Normurodova, Z. E. Features of the impact of higher education on the economic growth of the Republic of Uzbekistan. Central European Management Journal. Poland, ISSN, 2336-2693.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.